



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

SAID AHMADNING “BORSA KELMAS DARVOZASI” HIKOYASIDA EMOTSIONAL- EKSPRESSIVLIKNI IFODALOVCHI LISONIY VA NOLISONIY VOSITALARNING TADQIQI

Qodirov O‘ktamjon Qosimjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti, magistranti

Annotatsiya

Har bir kitobxon biror roman, doston yoki hikoyani mutolaa qilish davomida asarning matni orqali o‘z ongida turli o‘zgarishlarni his etadi.. Bu jarayonda, albatta, yozuvchining mahorati, ya’ni so‘z va iboralardan o‘z o‘rnida foydalana olish tajribasi yetakchilik qiladi. Mazkur maqolada Said Ahmadning “Borsa kelmas darvozasi” hikoyasidagi emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi lisoniy va nolisoniy vositalarning bir necha turlari haqida ilmiy tadqiqot o‘tkaziladi. Bizga ma’lumki, ushbu hikoya Said Ahmadning avtobiografik hikoyasi sanaladi. Bu hikoyada qahramonning ichki dunyosi, xotiralari va yo‘qotishlari keng yoritib berilgan. Asar o‘quvchini vaqt, hayot va inson qadri haqida o‘ylashga majbur qiladi. Undagi obrazlar va tasvirlar o‘zining emotsionallikka boyligi bilan ajralib turadi, har bir voqea qalbga yaqin yetib boradi. Asar davomida insonning kechinmalari, orzu-armonlari va iztiroblari uyg‘unlashib, chuqur falsafiy mazmun hosil qiladi. Shu jihatdan hikoya o‘zining ta’sir kuchi va badiiy yuksakligi bilan e’tiborni tortadi. Hikoya matni bilan tanishish davomida bir necha o‘rinlarda kuchli his-tuyg‘uni ifodalovchi vositalarga guvoh bo‘lamiz. Shuningdek, tadqiqot davomida asar matni chuqurroq o‘rganilib, unda muallif tomonidan ilgari surilgan asosiy g‘oya, badiiy niyat va mazmuniy sathlar yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: gradatsiya, takror, abbreviatsiya(qisqartma), kinoya, presuppozitsiya, jargon, maqol, tinish belgilari, ko‘makchi morfema, atama, undalma, tagma’no.

ИССЛЕДОВАНИЕ ЯЗЫКОВЫХ И НЕЯЗЫКОВЫХ СРЕДСТВ ВЫРАЖЕНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ЭКСПРЕССИВНОСТИ В РАССКАЗЕ САИДА АХМЕДА «ВОРОТА, ОТКУДА НЕ ВОЗВРАЩАЮТСЯ»

Кодиров Октамжон Косимжон угли
Ферганский государственный университет, магистрант

Аннотация

Каждый читатель, читая роман, эпос или рассказ, испытывает различные изменения в своем сознании под воздействием текста произведения. В этом процессе, конечно же, ведущую роль играет мастерство писателя, то есть опыт использования слов и фраз в их расстановке. В данной статье проводится научное исследование нескольких типов лингвистических и нелингвистических средств выражения эмоциональной выразительности в рассказе Саида Ахмеда «Врата, которые не откроются». Как известно, этот рассказ считается автобиографическим для Саида Ахмеда. В нем подробно описывается внутренний мир, воспоминания и потери героя. Произведение заставляет читателя задуматься о времени, жизни и человеческих ценностях. Образы и сцены в нем отличаются эмоциональной насыщенностью, каждое событие трогает до глубины души. На протяжении всего произведения сочетаются человеческий опыт, мечты и страдания, создавая глубокое философское содержание. В этом отношении рассказ привлекает внимание своей силой воздействия и художественной высотой. При знакомстве с текстом рассказа мы видим средства выражения сильных эмоций в нескольких местах. Кроме того, в ходе исследования текст произведения изучается более подробно, выделяя основную идею, художественный замысел и содержательные уровни, выдвинутые автором.

Ключевые слова: Градация, повтор, аббревиация (сокращение), ирония,

пресуппозиция, жаргон, пословица, пунктуация, вспомогательная морфема, термин, обращение, подтекст.

A STUDY OF LINGUISTIC AND NON-LINGUISTIC MEANS OF EXPRESSING EMOTIONAL-EXPRESSIVENESS IN SAID AHMAD'S STORY "THE GATE FROM WHICH THERE IS NO RETURN"

Qodirov Oktamjon Qosimjon ogli
Fergana State University, Master's Student

Abstract

Every reader feels various changes in his consciousness through the text of the work while reading a novel, epic or story. In this process, of course, the writer's skill, that is, the experience of using words and phrases in their place, is the leader. This article conducts a scientific study of several types of linguistic and non-linguistic means of expressing emotional expressiveness in Said Ahmed's story "The Gate That Will Not Come". As we know, this story is considered an autobiographical story by Said Ahmed. This story extensively covers the inner world, memories and losses of the hero. The work makes the reader think about time, life and human values. The images and images in it are distinguished by their emotional richness, each event reaches close to the heart. Throughout the work, human experiences, dreams and sufferings are combined, creating a deep philosophical content. In this regard, the story attracts attention with its impact and artistic height. During the acquaintance with the text of the story, we witness the means of expressing strong emotions in several places. Also, during the research, the text of the work is studied in more depth, highlighting the main idea, artistic intention and content levels put forward by the author.

Keywords: Gradation, repetition, abbreviation, irony, presupposition, jargon, proverb, punctuation, auxiliary morpheme, term, vocative, subtext.

Emotsiya tushunchasi mavjud lug'atlarda turlicha izohlanadi. Jumladan, psixologiyaga oid lug'atlarda: "Emotsiyalar (lot. *moveo* – hayajonlantiraman, iztiroblayman) – "emotsiya" termini ko'p hollarda "hissiyot" termini bilan bir ma'noda ishlatiladi. Emotsiya shaxsning voqelikka bo'lgan o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir", deb talqin qilinadi [1; 193]. Falsafiy lug'atlarda esa bu so'zga: "Emotsiya (lot. *moveo* – hayajonlantiraman, iztiroblayman) shaxsning muayyan voqelikka nisbatan o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoji va qiziqishi obyektlarining ahamiyatli tomoni bilan bog'liq bo'lgan turli darajadagi, mazmundagi, shakldagi yoqimli va yoqimsiz kechinmalar majmuasidir. Emotsiya hissiyot tushunchasi bilan bir ma'noda ishlatiladi. Lekin "hissiyot" bilan "emotsiya" tushunchasini aynan bir deb hisoblash mumkin emas", deb tavsif beriladi [2; 459]. Izohli lug'atlarda esa "emotsiya (fr. *émotion* < lot. *emovere* – hayajonga solmoq, to'liqlantirmoq) tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar ta'siri natijasida odam va hayvonlarda paydo bo'ladigan ruhiy kechinma; his-tuyg'u; his-hayajon; qo'zg'alish" sifatida izohlanadi [3; 459].

"Ekspressiv" so'zi lotin tiliga mansub bo'lib, lug'aviy jihatdan "kuchaytirilgan" degan ma'noni bildiradi. Mazkur termin tilshunoslik sohasiga ko'chma ma'noda kirib kelgan bo'lib, "kuchli hissiy obrazlilik xususiyati"ni ifodalaydi [4; 6]. Ekspressivlik tilshunoslikning eng murakkab kategoriyalaridan biri sanaladi, chunki u tilda subyektiv omilning namoyon bo'lishi va uning obyektiv voqelikni anglash jarayoni bilan uzviy bog'liqligi bilan xarakterlanadi [5; 10]. Shuningdek, Said Ahmadning mazkur hikoyasida emotsional-ekspressivlik va uni ifodalovchi vositalarning kitobxonga qay darajada ta'sir etishi muhim ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Adabiyotlar tahlili

Tilshunoslarning til birliklarining konnotativ ma'nosiga e'tibor qaratishi "emotivlik" va

“ekspressivlik” tushunchalarini semantik va stilistik tadqiqotlarda ajratish istagini yuzaga keltirdi [8]. 1980–1990-yillarda dunyo tilshunosligida yuzaga kelgan bahs-munozaralar ushbu tushunchalarning sinonimligiga qarshi chiqqan olimlar pozitsiyalarining til va nutq dixotomiyasiga asoslanganligini ko‘rsatdi (V. N. Teliya, M. N. Kojina, I. R. Galperin va boshqalar). Emotsionallik psixolingvistik kategoriya sifatida, “intellekt va iroda bilan bir qatorda”, E. M. Galkina-Fedorukning fikriga ko‘ra, til birliklari tizimining komponenti bo‘lib, kontekstda neytrallashishga qodir emas [9]. Ekspressivlik esa kommunikativ aloqa paytida so‘zlovchining adresatga bo‘lgan subyektiv munosabatini ifodalovchi, pragmatik ahamiyatga ega vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot jarayonida “Borsa kelmas darvozasi” hikoyasidagi emotsional-ekspressivlikni ko‘rsatuvchi lisoniy va nolisoniy vositalar birma-bir tahlil qilinib, ularning ilmiy ta‘rifi beriladi. Bunday vositalarning kitobxonga qanday ta‘sir etishi hamda asarning qiymatini qay darajada oshirishdagi o‘rni va ta‘siri aniqlanadi. Shuningdek, Said Ahmadning mazkur hikoyasi hozirgacha lingvopragmatik jihatdan yetarlicha o‘rganilmaganligi va bu hikoyada emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi vositalarning qiymati yuqori ekanligi bois, ularning badiiy matndagi o‘rni izohlab beriladi.

Tahlil va natijalar

Buning uchun, avvalo, so‘zning emotsional-ekspressivlik darajasi so‘zlovchining layoqatiga bog‘liq bo‘lishini yodda tutgan holda, emotsional-ekspressivlikni amalga oshirish mumkin bo‘lgan usullardan ba‘zilarini belgilab olamiz va aynan shu usullarga Said Ahmad hikoyasidan misollar keltirish orqali yozuvchi aslida nima demoqchi ekanligini ko‘rib chiqamiz.

1. Takror

Takror (arab. – qaytarish, takrorlash) termini, yuqorida qayd etilganidek, lingvistik adabiyotda “takrorlash”, “reduplikatsiya” (so‘z negizini takrorlash yo‘li bilan yangi so‘z yasash), “ikki marta oshirish” kabi ayrim holatlarda bir-biridan farqlanmaydigan, yana boshqa hollarda esa turli ma‘nolarni ifodalovchi tushuncha sifatida talqin qilinadi [6; 378]. Mazkur maqolada muallif qo‘llagan takror esa matnning kitobxonga ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Tilshunoslikda takror (repetitsiya) tushunchasi nutqiy ta‘sirchanlikni oshirish, fikrni kuchaytirish yoki grammatik ma‘noni ifodalash uchun so‘z, ibora yoki gap bo‘laklarining qayta qo‘llanilishini anglatadi. Bu hodisa badiiy nutq, stilistika va leksikologiyada muhim o‘rin tutadi.

Бунда буюк бир сукунат хукмрон. Бу ерда хотира, бу ерда хаёллар, ўксиклик, етимлик изтироблари, соғинч хукмрон... (Қоракўз мажнун) [7; 27]

Hikoyadan olingan mazkur qisqa parchada takrorlarning bir necha turlariga guvoh bo‘lamiz. O‘z o‘rnida bu takrorlar, ya‘ni leksik va gap bo‘laklarining misra boshida takrorlanishi (anafora), emotsionallikni oshirishga juda katta xizmat qilgan.

2. Qisqartma

Bizga ma‘lumki, qisqartmalar so‘z yoki so‘z birikmalarining bosh harflari yoki ma‘lum qismlarini ajratib olib, o‘zaro qo‘shish orqali hosil qilingan birliklar hisoblanadi.

Баъзан маҳаллага ГПУ одами келиб, оқсоқолга нималарнидир тушунтирарди. Оқсоқол эса уйма-уй юриб, қоронғи тушгандан кейин кўчага чикмасликларини, болаларни ҳам уйда ушлаб туришларини тайинларди. Биз болалар барибир қочиб чиқиб кетардик. Биламиз, ГПУ одами бекорга келмаган. (Қоракўз мажнун) [7; 28]

Ushbu asardan olingan ГПУ so‘zi “Государственное политическое управление” so‘zining qisqartmasi hisoblanadi. Yozuvchi bu so‘zni qisqartirib qo‘llash orqali kitobxonga o‘sha davrning haqiqiy holatini ko‘rsatishga erisha olgan. Ya‘ni hikoya matni bilan tanishib borar ekansiz, bu qisqartmalar o‘zining matndagi yozilgan davrga xosligi bilan yaqqol ajralib turadi. Shu sababli ham matndagi qisqartmalarni emotsionallikni ko‘rsatuvchi vosita sifatida ayta olamiz.

3. Orzu-istak mayli va tinish belgisi

Tilshunoslikdan xabari bor kitobxonlarga shunisi aniqki, orzu-istak maylini qo‘llash

bilan biz o‘zimizning orzu-istaklarimizni bayon etamiz. Yozma nutqda tinish belgilarini qo‘llash orqali esa so‘zlarning qay tarzda ifoda etilganini tushunamiz.

Қани энди қимирлаб бўлса! Бирининг оёғи бирининг бошида, бирининг боши бошқасининг қўлтиғида қисилиб қолган. Биров бировни танймайди. Қани энди бу азобга чидаб бўлса! Маҳбус инграйр, ваҳший бир овозда бўкирарди. Марказнинг буйруғи билан “дохий” Сталин мавзолейга қўйилаётганда Совет мамлакатининг жамики худудларида поездлар, кемалар, машиналар, ҳамма транспорт воситалари келган жойларида тек қотадилар. Сиёсий маҳбусларни олиб кетаётган эшелонга станцияларда алоҳида “хурмат” билан йўл бўшатиб беришарди.

(Қорақўз мажнун) [7; 30, 31, 38]

Yuqorida keltirilgan hikoyadan olingan parchalar orqali yozuvchining o‘sha davrdagi his-tuyg‘ularini tushunishimiz uchun matn tarkibida qo‘llangan orzu-istak mayli qo‘shimchasi va undov tinish belgisining qo‘llanilishi kitobxonga o‘sha vaqtning asl holatini his qilishga yordam beradi. Shuningdek, bu vositalar matnning ekspressiv ta‘sirini oshirib beradi. Bundan tashqari, hikoyadan olingan so‘nggi misolda qo‘llangan qo‘shirnoq belgisi matn tarkibidagi “хурмат” so‘zining kinoya bilan aytilayotganini ko‘rsatishga yordam bergan. Umuman olganda, badiiy asarni o‘qish jarayonida tinish belgilarining o‘rni juda katta ekanligini yuqoridagi misollar orqali ham bilib olishimiz mumkin.

4. Ko‘makchi morfema

O‘zbek tilshunosligida *-gina*, *-kina*, *-qina* kabi lug‘aviy shakl yasovchi, ya‘ni erkalash-kichraytirish ma‘nosini ifodalovchi qo‘shimchalar mavjud.

Штаб олдида оқ халат кийган итхона ветеринари ирkitгина чол бир қўлида белкурак, бир қўлида қоғоз қоп ушлаб кутиб турарди.

(Қорақўз мажнун) [7; 33]

Mazkur hikoyadan olingan parcha orqali shuni bilamizki, *irkit* so‘zi salbiy ma‘noda qo‘llanadi. Ammo hikoyani o‘qish davomida bu so‘zga erkalash-kichraytirish qo‘shimchasining qo‘shilishi ushbu so‘zning salbiy jihatini yumshatishga xizmat qilgan va kitobxonda asar matniga nisbatan qiziqish uyg‘otgan.

5. Jargon

Jargon — biror ijtimoiy guruhning o‘ziga xos leksikasi, fonetikasi va grammatikasi bilan umumso‘zlashuv tili hamda mahalliy dialektlardan farq qiladigan til qatlamidir. Jargon muayyan ijtimoiy muhitda yuzaga keladi va shu guruh manfaatiga xizmat qiladi (talabalar, harbiy xizmatchilar, turli kasb va mashg‘ulot egalari orasidagi jargon). Bunday jargonlarni kuchli rivojlangan va aniq terminlarga ega biror kasb tili bilan aralastirmaslik lozim. Jargon ham leksik, ham uslubiy jihatdan turli-tuman, tez o‘zgaruvchan va barqaror bo‘lmaydi. “Borsa kelmas darvozasi” hikoyasida ham bir necha jargonlarga guvoh bo‘lamiz.

Бутун шўро заминининг қон томиридек таралган темир излар бўйлаб судралган «Бахтсизлар уйи»да бугуни қоронғу, эртаси номаълум ЗЕК деб аталмиш жисмоний шахслар сарсон-саргардон кезарди.

(Қорақўз мажнун) [7; 32]

Yuqoridagi hikoyadan olingan parchada ishlatilgan ЗЕК jargoni o‘sha davrdagi mahbuslar uchun ishlatilgan. Bu esa, o‘z navbatida, emotsional-ekspressivlikni ko‘rsatuvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

6. Gradatsiya

Tilshunoslikda gradatsiya (lot. *gradatio* — zinapoya, daraja) — so‘z yoki iboralarning ma‘no kuchayishi (o‘sishi) yoki kuchsizlanishi (pasayishi) tartibida joylashishi orqali ifodalilikni oshiruvchi stilistik usuldir [10]. Bu nutq ta‘sirchanligini kuchaytirish uchun qo‘llaniladigan uslubiy vosita bo‘lib, narsa va belgilarining darajasini ko‘rsatadi.

Ширимбетов букчайганча, оёқлари букилганча қотиб қолган эди. Ҳалигача очик

турган кўзларида нур сўнган. Чексиз алам, изтироб, нафрат акс этган бу кўзлар энди лоқайд, ҳеч қандай маъно англамас эди.

(Қорақўз мажнун) [7; 31]

Mazkur hikoyadan olingan parcha ko'tariluvchi gradatsiyaga misol bo'la oladi. Yozuvchi *alam, izтироб, нафрат* so'zlarini ketma-ket qo'llash orqali gradatsiyadan foydalangan va ta'sirchanlikni oshirishga erisha olgan.

Xulosa

Xulosa o'rniida shuni aytish mumkinki, Said Ahmadning "Borsa kelmas darvozasi" hikoyasida emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi vositalar o'zining serqirraligi va rang-barangligi bilan diqqatga sazovordir. Mazkur hikoya, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, hayotiyiligi, ya'ni avtobiografikligi bilan ham ajralib turadi. Shuningdek, hikoya matni bilan tanishish davomida bir necha o'rinlarda tagma'no va presuppozitsiya hodisalariga ham duch kelamiz. Bu vositalar ham o'z navbatida asar matnining ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi.

Hikoya matni bilan tanishgan kitobxon ongida ozgina bo'lsa ham his-tuyg'ularning o'zgarish jarayoni kuzatiladi. Ba'zi o'rinlarda quvonchni, ba'zida esa qayg'uni uyg'otuvchi jarayonlarga duch keladi. Albatta, bu holatlar ma'lum lisoniy yoki nolisoniy vositalar orqali yuzaga chiqadi. Mazkur maqolada yuqorida keltirilgan misollar orqali tushunarli tarzda tahlil olib borildi va tilimizning imkoniyatlari naqadar keng ekanligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Turg'unov Q. Psixologiya terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati. — Toshkent: O'qituvchi, 1975. — 193 b.
2. Falsafa: qomusiy lug'at / tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov. — Toshkent: Sharq, 2004. — 459 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. J. II. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2002. — B. 38.
4. Madjidova R. U., Muxiddinova H. S., Sultonova Sh. M. Tilshunoslikka kirish. — Toshkent, 2015. — 6 b.
5. Шарова В. В. Средства выражения экспрессивности в сатирическом художественном тексте: на материале романов И. Ильфа и Е. Петрова «Двенадцать стульев» и «Золотой телёнок»: автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Санкт-Петербург, 2003.
6. Ахманова С. О. Словарь лингвистических терминов. — М., 1987.
7. Ahmad Said. Qorako'z majnun: hikoyalar. — Toshkent: O'zbekiston, 2001. — 240 b.
8. Abduraximova N. Emotionality as a functional-semantic category. Scientific views on the terminology of emotion // The Lingua Spectrum. — 2025. — Vol. 10, No. 1. — P. 99–107. — URL: <https://lingvospekr.uz/index.php/Ingsp/article/view/1094>
9. Галкина-Федорук Е. М. Об экспрессивности и эмоциональности в языке: сборник статей по языкознанию. — М., 1958.
10. Wikipedia [Elektron manba]. — URL: <https://uz.wikipedia.org>